

УДК 37.013

**MEHNAT TARBIYASI ORQALI O`QUVCHILARNING XALQ
MILLIY AN`ANALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

*Kamaladin Kuronboyevich Matyakubov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Texnologik ta`lim kafedrası o`qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o`quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq milliy an`analaridan foydalanish metodikasining muommolari yuzasidan olib borilgan tadqiqot jarayoni yoritilgan bo`lib yakunda bir qancha xulosalar berilgan.

Kalit so`zlar: Mehnat tarbiyasi, konsepsiya, qadriyat, didaktika

**PROBLEMS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF
STUDENTS 'USE OF NATIONAL TRADITIONS THROUGH LABOR
EDUCATION**

*Kamaladin Kuronboyevich Matyakubov
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region
Teacher of the Department of Technological Education*

ANNOTATION

This article describes the research process on the problems of the use of national traditions in the labor education of students, and concludes with a number of conclusions.

Keywords: Labor education, concept, value, didactics

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining dunyo ta’lim fazosiga kirishi, jamiyatdagi yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar umumta’lim maktablari oldiga ko‘pina o‘quv-tarbiyaviy jihatlarini, shu jumladan o‘tmishdagi milliy an’analarini va tajribalarni o‘rganishga va ularga o‘kuvchilarni yoshligidanoq jalb qilishga bo‘lgan qarashlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish talabini qo‘ydi.

O‘zbek xalqlarining milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish sharoitida xalq pedagogikasi ilg‘or tarbiyaviy an’analarining roli va ahamiyati jamiyatni jipslashtirishning insonparvarlik an’analarida, mehnatda, oilada, jamiyatda ahloqiy o‘zaro munosabatlarning o‘shida namoyon bo‘ladi. Bu an’analar xulq boshqaruvchisi rolini bajaradi.

Milliy mafkura tashuvchisi sifatida xalqning ilg‘or tarbiyaviy an’alariga murojaat qilish muhim insonparvarlik, ijtimoiy-ahloqiy, etno-madaniy ahamiyat kasb etadi. Akademik A.E.Izmaylov shunday deydi: “Xalq avloddan avlodga o‘zining ijtimoiy tajribasini, ma’naviy boyligini katta avlodning kichigiga merosi sifatida uzatib boradi va shu bilan jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati tarixini yaratadi...”¹.

Shundan kelib chiqib zamonaviy bosqichda o‘tib kelayotgan avlodni tarbiyalashning ilg‘or milliy o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, uni yangi sharoitlarda hayotga va mehnatga tayyorlash, shuningdek xalq mehnat an’analari, urf oatlardan o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda foydalanish yo‘llari, shakllari va metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, xalq pedagogikasida, uning tamoyillari va qarashlarida mehnat kishilarining bir necha marta xalq hayotining boy amaliyotida tekshirilgan va tasdiqlangan, ko‘p asrli tarbiyaviy tajribasi mujassamlangan

¹ Измайлов Э.А. Педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана//Народная педагогика.- М.,1991-252 б.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Faylasuflar va sotsiologlar (N.Mamatov, Q.Nazarov, I.Karimov va b.) psixologlar (E.G‘oziyev, B.R.Qodirov, V.Karimova, G‘.B.Shoumarov va b.), pedagoglar (O‘.Aleulov, N.N.Azixodjayeva, T.Xasanov va b.) ishlarida muhit va tarbiyaning o‘zaro aloqalarning ko‘pqirrali muammolarini tadqiq qilishga, milliy an‘analardagi qonuniyatlarning ularga ta‘siriga muhim o‘rin ajratilgan.

A.E.Izmaylovning ishi alohida o‘rin tutadi, unda G.S.Vinogradov, G.I.Volkovdan boshlab hozirgi kungacha muammoni tadqiq qilish xronologiyasi har tomonlama va chuqur qarab chiqilgan. Boshqa tadqiqotlar ichida SH.Qurbonov, A.K.Minavvarov, K.Pirliyev, E.Sayitxalilov, F.Yuzlikayevlarning nazariy-metodik ishlari alohida e‘tiborga loyiq.

U.N.Nishonaliyev, N.Muslimov, monografiyalari, shuningdek R.A.Mavlonovanning doktorlik dissertatsiyasi alohida qiziqishga loyiq. Mehnatga tayyorlash muammosining umummetodologik, nazariy jihatlarini, uning milliy o‘ziga xos xususiyatlari N.S.Safayev (o‘quvchilarning mehnat ijodkorligi jarayoni), R.G.Isyanov (o‘qitishni ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘shib olib borishning pedagogik asoslari), I.T.Choriyev (qishloq umumta‘lim maktablarida mehnatga o‘qitish va kasbga yo‘naltirish tizimini shakllantirish va rivojlantirish) A.R.Xodjaboyev (qishloq maktab o‘quvchilarini politexnik va kasbiy ta‘limning umumiy aloqalari asosida mehnatga tayyorlash), P.T.Magzumov (maktab o‘quvchisi shaxsini mehnatda shakllantirishning pedagogik asoslari), M.Xaydarov (kichik shdagi maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash tizimi) tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

M.Ochilov, S.Ochilov, U.Maxkamov, O.Musurmonova, U.Tolipov, S.Nishonova, S.Bulatov, N.Sultonova, Z.Ismoilova, A.Musurmonov, M.Bozorova, E.Xolmirzayev, va boshqalarning nomzodlik dissertatsiyalari konkret regional sharoitlarda o‘quvchilarning ahloqiy-mehnat tarbiyasiga oid turli masalalarni milliy an‘analardan foydalangan holda ochib berishga bag‘ishlangan.

Pedagogik tadqiqotlarning keng manbashunoslik bazasini yetarlicha ishonchli darajada tahlil qilish o'quv-tarbiyaviy jarayonda xalq pedagogikasi an'analariidan tadqiqotchilik metodi sifatida majmuaviy yondoshuvni talab qiluvchi, murakkab, ko'p qirrali, falsafiy-ijtimoiy, psixologo-pedagogik fenomen sifatida foydalanish muammosini aniqlash imkonini berdi. Aynan ana shu holat ushbu tadqiqot mavzusini tanlashga yo'naltirdi.

NATIJALAR

Tadqiqotning amaliy ahamiyati muammoni hal qilishning nazariy-amaliy asoslaridan, o'qituvchilar, ota-onalar, pedagogika oliy o'quv yurtlarining pedagoglari uchun metodik ishlanmalar ishlab chiqishdan iborat. Nazariy-amaliy materiallar o'quv-tarbiyaviy jarayonni, xususan mehnat tarbiyasini samarali tashkil qilishda; mehnat tarbiyasini xalq mehnat an'analari asosida takomillashtirishda; pedagogika oliy o'quv yurtlari boshlang'ich ta'lim metodikasi fakulteti talabalari, maktab o'qituvchilari xalq pedagogikasidan o'quv qo'llanmalari va maxsus kurslarni tayyorlash jarayonida foydalanilishi mumkin.

xalq urf-odatlarini, tadbirlari, bayramlarining mazmuni tahlil qilinadi. Urf-odatlar insonlarning ko'p asrli faoliyatlari – mehnati, turmush va oilaviy ta'sirlari natijasida yuzaga keladigan xalq udumlarining o'zaro bog'langan zanjiri sifatida qaraladi. Tadbirlar an'analarning badiiy shakli sifatida qaraladi, ularning ma'lum g'oyalari va etnik meyorlari timsoliy tarzda musiqa, ashula, raqs, shuningdek publitsistika va badiiy chiqishlar vositasida ifodalanadi. Bayramlar insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiy faoliyati to'plami, an'anaviy shakli sifatida tavsiflanadi.

O'quvchilar mehnat tarbiyasida ishlab chiqilgan tizimi quyidagi yo'nalishlarni ko'zda tutadi: mehnat tarbiyasining yaxlit tizim doirasida milliy an'analardan foydalanishning turli shakllari, vositalari, usullari, metodlari va sharoitlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; o'quv yurtlari, oila, jamoatchilikning tarbiyaviy ishlari o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish; pedagogika

o‘quv yurtlarining mehnat ta‘lim yo‘nalishiga “Xalq pedagogikasi” maxsus kursini kiritish bilan bo‘lajak o‘qituvchilarining mehnat an‘analari to‘g‘risidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini kengaytirish va takomillashtirish; ota-onalar o‘rtasida bolalarning mehnat tarbiyasi masalalari yuzasidan bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyaviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilish.

Nazariy tahlil asosida o‘quvchilarning shaxsini takomillashtirishning asosiy omillari aniqlandi: o‘quvchilarning shaxsini kamolotga yetkazishda ijtimoiy muhitning roli; uning qadriyatlar tizimidagi uzatishlar, tarbiyaning etnik madaniyat o‘ziga xos tomonlariga mosligi, tarbiya jarayonida milliy mehnat an‘analarini va urf-odatlarini hisobga olish.

“ O‘quvchilarning mehnat tarbiyasida halq milliy an‘analaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirishning pedagogik tizimi” deb nomlanuvchi ikkinchi bobda - o‘quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an‘analaridan foydalanishning ishlab chiqilgan tizimi asosiga xalqning amaliy tarbiyaviy tajribasi, o‘tib kelayotgan avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashning tarixan yuzaga kelgan va avloddan avlodga xalq og‘zaki ijodi, o‘yinlar, urf-odatlar, bayramlar, udumlar, ishlab chiqarish mehnati orqali uzatiladigan risolalari, shakllari va metodlari qo‘yilgan.

Xalq mehnat tarbiyasining tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tarixiy o‘tmishda mehnat tarbiyasi sodda amaliy bilimlarga asoslangan bo‘lib, maqsadga erishishning ma‘lum prinsiplari va vositalariga ega bo‘lgan. O‘zbek xalq pedagogikasida mehnat kishisi, yuqori ahloqqa, amaliy aqlga ega bo‘lgan, jismonan kamol topgan, ona tabiatning go‘zalligini his qila oladigan yaratuvchi ana shunday risola sifatida namoyon bo‘ladi.

Eksperimental sinflarda xalq milliy an‘analaridan foydalanish bo‘yicha barcha sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar dissertant taklif etgan tizimda olib borildi. Nazorat sinfida o‘qituvchilar an‘anaviy metodika bo‘yicha ishladilar. Eksperiment materiallariga quyidagilar kiritildi:

1. Xalq milliy an‘analaridan foydalanish mezonlari va prinsiplari.

2. Turli sinflarda turli fanlarni o'rganishda milliy an'analarga oid etnopedagogik materiallardan foydalanish nuqtai nazaridan muhim mavzular.

3. Bu an'analarga yaxlit yondoshishni, shuningdek ularni o'qitishdagi izchillikni hisobga oluvchi darslar ishlanmasi va metodikasi (jami 24 soat). O'n beshta sinfda, 286 soat eksperiment asosida darslar o'tkazildi.

4. Etnopedagogik an'analarni asosida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi vazifalarini hisobga olgan holda darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. O'n beshta sinfda, eksperiment asosida 5 ta metodik programma ishlab chiqildi va 76 tadbir o'tkazildi.

5. Turli sinflarda turli fanlarni o'rganishda etnopedagogik materiallardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyanomalar.

Nazorat eksperimenti 2015 yildan 2020 yilgacha davrda o'tkazildi. Uni o'tkazishda dissertant ishlab chiqqan va tekshirgan konsepsiyalarning samaradorligi darajasini aniqlash uchun obyektiv material to'planishini ta'minlovchi turli xil metodlardan foydalanildi. Shakllantiruvchi eksperiment davrida o'quvchilar o'zlashtirgan etnopedagogik milliy an'analarni bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Baholash mezonlari quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi: milliy an'analarni bilishi (miqdoriy ko'rsatkich); o'quvchilarning xalq milliy an'analarni mazmuni va tarkibiy tuzilishini bilishi va tushunishining yaxlitligi (sifat ko'rsatkichi); o'quvchilarning boshqa millatlarning milliy an'analarni farqlay olish malakasi (miqdoriy va sifat ko'rsatkich); o'quvchilarning xalq milliy an'analarni o'rganganligi. Ishlab chiqilgan xalq modelida eksperiment natijalariga ko'ra o'rganilgan milliy an'analarni bo'yicha o'quvchilarning bilimi, malakalari va ko'nikmalari darajasi mezonlar asosida uchta – yuqori, o'rta va past darajaga bo'linadi.

O'quvchilarning o'rganilgan xalq milliy an'analarni bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash bo'yicha o'quvchilar, ota onalar, to'garak rahbarlari, maktab rahbariyati, shuningdek o'qitishning uzaytirilgan guruh tarbiyachilari,

mahalla oqsoqollari, ota onalar bilan yuqorida bayon qilingan ko'rsatkichlar va mezonlar asosida suhbatlar o'tkazildi. Nazorat va eksperimental sinflaridagi har bir o'quvchi to'g'risidagi tavsiyalar umumlashtirildi.

MUHOKAMA

Dissertant ishlab chiqqan xalq an'analaridan foydalanish pedagogik tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: mehnat yordamida tarbiyalash, izchillik va tizimiylik, bolaga talabchanlik va insonparvarlik munosabatida bo'lish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Dissertant oilani, tengdoshlar jamoasini, kattalar jamoasini pedagogik tizimning asosiy omili deb belgilaydi. Mehnat tarbiyasining asosiy vositalariga quyidagilar kiritilgan: kuchi yetadigan ishlab chiqarish mehnati, xalq og'zaki ijodi, o'yin faoliyati, urf-odatlar, udumlar, milliy udumlar kiritilgan bayramlar; prinsipial xususiyatlarga – mehnatni insonning asosiy majburiyati sifatida va bolalarni tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qarab chiqish; bolalarni o'z kuchiga loyiq ishlab chiqarish mehnatiga erta jalb qilish, oiladagi mehnat muhiti, xalq og'zaki ijodi, o'yin faoliyati, shuningdek milliy mehnat bayramlari, urf-odatlar, udumlar vositasida mehnatga psixologik tayyorlash; mehnatning pedagogik jihaitlarini hisobga olish, ya'ni bolalarni kichik uka va singillarini tarbiyalashga jalb qilish; tarbiyaning muhim omili – ota, ona, oila a'zolari, tengdoshlar jamoasidan foydalanish.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasini qurishda biz ilg'or mehnat an'analarining, urf-odatlarining roliga alohida o'rin ajratadi, chunki ularda mehnat kishilarining ko'p asrli tarbiyaviy tajribasi, samarali pedagogik ta'sirning kattta potensial imkoniyatlari mujassamlangan.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan yaxlit foydalanishning nazariy modeliga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat bo'ldi: o'quv tarbiyaviy jarayonni intensivlashtirish, uni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish; mehnat tarbiyasi maqsadlarini tubdan

o'zgartirish; shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish; mehnatning ahloqiy qadrini tushunib yetish; mehnatga ahloqiy-qadriyatli munosabatda bo'lish.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasida ularning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, intellektual va ahloqiy rivojlanishi; ularning bilish va faoliyat ehtiyojlari hamda talablarining shakllantirilishi va qoniqtirilishi; muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga va umuminsoniy ahloqiy munosabatlar tizimiga jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. Mehnat tarbiyasi butun jarayonining ham mazmuniy, ham tashkiliy komponentlarini – o'quvchilarni o'qitishni, tarbiyalashni va shaxsini rivojlantirishni qayta qurish shu maqsadga bo'ysunadi. Tubdan qayta qurish o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishda mehnat ta'limining rolini jiddiy oshirishni ko'zda tutadi: mehnat ta'limi mazuniga etnopedagogik materiallarni kiritish, o'quv tarbiyaviy jarayonni o'quvchining ijtimoiy tajribasiga yaqinlashtirish, mehnat ta'limi jarayonini falsafiy, psixologik, didaktik jihatdan qayta ko'rib chiqish. Taklif qilinayotgan konsepsiyaning falsafiy jihatlari shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, o'zgartirish faoliyati, mehnatga layoqatning shakllanishi kontekstida rivojlanishning o'ziga xos turi sifatida namoyon bo'ladigan, keng yoyilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z o'rnini topish istiqbollari, an'alariga ega bo'lgan shaxsning shakllanishi kabi falsafiy kategoriyaning talqin qilinishi va tushuntirilishi vositasida amalga oshiriladi.

Psixologik jihatdan dissertant o'quvchi shaxsning motivatsion ehtiyoj sohasini shakllantirdi, bu soha o'qitish mazmunini tanlab olish bilan faollikni, qiziqishni, o'quv amallariga ongli ravishda, ijodkorlik bilan yondoshishni uyg'otadi.

Didaktik jihati etnopedagogik materialni va unga mos keladigan shakllar, metodlar, vositalarni hamda uni taqdim qilish va tarbiyaviyligini faollashtirish usullarini tanlashdan boshlab, to egallangan bilim, mehnat malakalari va ko'nikmalarini maslak va kasbiy mustahkamlangan usullarga aylantirilishida namoyon bo'ladi, bunga natija keltiruvchi, o'quvchi tomonidan moddiy va

ma'naviy boyliklarni yaratishida faol ishtirok etishi uchun ijtimoiy qadriyatli yo'nalish sifatida tushuniladigan konkret mehnat faoliyati orqali ershiladi.

Mehnat tarbiyasining yaxlit konseptual asosini tashkil qiladigan falsafiy, psixologik va didaktik komponentlar to'plami mazmuniga ilg'or mehnat an'analari kiritilganida dissertant fikricha quyidagilarga imkon yaratadi: o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirishni ta'minlash; o'quvchilarning bilish saviyasini oshirish; dastur materialini ongli ravishda o'zlashtirilishiga erishish; mehnatga o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonining tarbiyaviy potensialini oshirish.

O'quvchilarni tarbiyalashda ilg'or milliy mehnat an'analardan yaxlit foydalanish quyidagi psixologo pedagogik prinsiplarga asoslanadi: o'quvchilarning yoshi bo'yicha rivojlanishini hisobga olish; majmuaviylik, tizimiylik, ketma ketlik va izchillik.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasini ilg'or milliy mehnat an'analari asosida bosqichma bosqich amalga oshirishning optimal darajalari deb maktabgacha muassasalar, oila, maktab (ham darsda, ham sinfdan va maktabdan tashqari ish), mahalla (turar joylaridai jamoatchilik tashkilotlari) belgilandi.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasi jarayoni mazmuniy va protsessual jihatlarining birligi tarbiya jarayoniga ilg'or milliy mehnat an'alarini, urf odatlarni samarali kiritishni belgilab berdi, xalq pedagogikasi mazmunining tarbiyaviy imkoniyatlarini intensivatsiya qildi, o'quvchilar shaxsiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari, metodlari va vositalarining an'anaviy to'plamiga turli tumanlikni kiritdi.

XULOSA

➤ Muammoning nazariyadagi va amaliyotdagi holatining zamonaviy metodologik manbalari (vatanimizdagi va chet eldagi) tahlil qilindi, milliy an'analarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat tartiyasiga hamda o'quv jaranida va sinfdan tashqari ishlarda shaxsiy sifatarning shakllantirilishiga

ta'siri ko'rsatib berildi. Konseptual pedagogik qoidalar va pedagogik talablar ishlab chiqildi.

- O'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanishning pedagogik tizimi ishlab chiqildi.
- O'quvchilarning mehnat tarbiyasi konsepsiyasi qurildi.
- O'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanishning nazariy modeliga qo'yiladigan asosiy talablar ishlab chiqildi.
- O'quvchilarning mehnat tarbiyasini ilg'or milliy mehnat an'analarida bosqichma-bosqich amalga oshirishning optimal darajalari asoslab berildi.
- O'quvchilarni o'zlarining kuchlariga loyiq mehnat faoliyatiga jalb qilishga asoslangan mehnat tarbiyasining samarali tizimi ishlab chiqildi.
- Tadqiqot vaqtida o'quvchilarda amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga amaliy jihatdan psixologo-pedagogik tayyorlashda, mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tarbiyaning turli shakl va metodlarini tanlashda xalq milliy an'analaridan foydalangan holda o'quvchilarga tabaqalashtirib yondoshish imkoniyatlari isbot qilindi.

REFERENCES:

1. Матякубов.К (2020). Мехнат тарбияси орқали ўқувчиларнинг ижтимоий ҳаётга мослашишларини таъминлаш. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1051-1056.

2. Матякубов.К The use of national traditions in the labor education of pupils// Academia,2020. Volume 10,Issue 10,pp 300-305

3. Матякубов.К., Рахманов А.Р. Макtablarda ta'limning ijtimoiy sheriklik modelini yaratishda klaster yondashuv. Academic research in educational sciences,2020.Volume 1,Issue 4,244-249 b.

4. Матякубов.К Process of Labor Preparation for Schoolchildren. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(09), 2405-2412.

5. Халмухамедова, М. А. (2020). Нақшбандия тариқати воситасида талабаларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш (технологик таълим мисолида). Муг‘аллим, 1(1).

6. Шермухамедов Р.С., Бурхонов А. Сущность воспитания и его место в селостной структуре образовательного процесса//Халқ таълими,2020, № 3

7. Шермухамедов Р.С., Эшмонова .Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларни меҳнат тарбияси орқали ижтимоий ривожланишларини таъминлаш//Узлуксиз таълим,2020. 67-71 б.

8. Хамидов Ж.А.О некоторых формах, методах трудового воспитания младших школьников // Academic research in educational sciences,2020. Volume 1, Issue 3, 1045-1050 с

9. Yakubova M.Y. Ta’lim-tarbiya jarayonida kreativ yondashuvning dolzarbligi va uning ahamiyati// Халқ таълими,2020,№ 3 84-88 б.

10. Якубова М.Ю. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида креативликни шакллантиришнинг назарий жиҳатлари// Academic research in educational sciences,2020. Volume 1, Issue 3, 1057-1062 б.

11. Jumanova F.U., Halmuxamedova M.A. “Naqshbandiya tariqatining uzluksiz ta’lim tizimidagi kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi o’rni”// Uzluksiz ta’lim. 2020 8-12 б.

12. Матякубов.К «Нақшбандия тариқати воситасида талабаларда кластер усулида устоз-шогирд анъаналарини такомиллаштириш»// Academic research in educational sciences,2020. Volume 1, Issue 3, 1063-1071 б.

13. Abduvaliyev U., Butunov J. Dynamic analysis of planetary mechanism of the horizontal forging machine// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Volume 7, Issue 6, 2020, pp 14031-14035

14. Ergashev M., Butunov J., Mamasodikov X. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Volume 7, Issue 6 2020, pp 14116-14119

15. Majidov, J. (2020). Mustaqil ta'limda talabalarning bilimlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining roli haqida. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(61).
16. Majidov, J. (2020). Роль и значение психолого-педагогических знаний в теоретической и практической подготовки будущего учителя. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(51).
17. Majidov, J. (2020). Амалиёт - фаолликни шакллантирувчи восита сифатида. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(46).
18. Majidov, J. (2020). Моделирование и размещение профессиональные образовательных учреждений на основе многоступенчатой системы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(48).
19. Majidov, J. (2020). Худудларда ғаллачилик хўжаликлариди ишлаб чиқариш таркибини мақбуллаштириш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(18).
20. Majidov, J. (2020). Pedagogical vocational guidance has its own specifics. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(4).
21. Majidov, J. (2020). Психическая деятельность и её структуры . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(67).
22. Majidov, J. (2020). Социально-философские основы инновационного развития высшего образования Узбекистана. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(46).
23. Majidov, J. (2020). О качествах, необходимых будущему учителю. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52).
24. Majidov, J. (2020). Сущность и особенности математического моделирования и прогнозирования в экологии. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(46).
25. Majidov, J. (2020). Малака ошириш ва касбий тайёрлаш тизимида таълим технологиялари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(61).

26. J Majidov. Сущность и особенности математического моделирования и прогнозирования в экологии. Архив Научных Публикаций JSPI

27. J Majidov. Электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш таълим сифатини ошириш омили сифатида. Архив Научных Публикаций JSPI

28. J Majidov. Подготовка к педагогической деятельности. Архив Научных Публикаций JSPI

29. J Majidov. Таълим жараёнида электрон дарсликлардан фойдаланишнинг педагогик-психологик жихатлари. Архив Научных Публикаций JSPI

30. J Majidov. Основные направления образовательного комплекса на основе экономико-математического моделирования. Архив Научных Публикаций JSPI

31. J Majidov. Psychological criteria of the leader personality. Архив Научных Публикаций JSPI

32. J Majidov. Pedagogical vocational guidance has its own specifics. Архив Научных Публикаций JSPI

33. J Majidov. Formation of pedagogical abilities and personality traits necessary for professional activity. Архив Научных Публикаций JSPI